

**ALEKSANDR FAYNBERGNING QISH TASVIRIGA
BAG'ISHLANGAN „QISH’’ SHE’RI**

Olimova Shahina Botirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning “Qish” she’ri badiiy va mazmuniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda qish faslining manzaralari, shoirning tabiatni tasvirlashdagi poetik mahorati hamda obrazli ifodalar orqali berilgan ruhiy kechinmalar yoritiladi. Maqolada qish fasli orqali inson ruhiyati, sokinlik, tafakkur va hayotiy falsafa aks ettirilgani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, she’rda qo‘llangan badiiy vositalar — metafora, tashbeh va tasviriy ifodalarning asar mazmunini ochib berishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Aleksandr Faynberg she’riyatida tabiat tasviri inson ruhiyati bilan uzviy bog‘liq holda ifodalangani asoslab beriladi.

Abstract. This article analyzes Alexander Feinberg's poem "Winter" from an artistic and content perspective. The study highlights the winter scenery, the poet's poetic skill in describing nature, and the spiritual experiences conveyed through figurative expressions. The article shows that the human psyche, tranquility, contemplation, and philosophy of life are reflected through the winter season. It also analyzes the role of the artistic means used in the poem - metaphor, simile, and figurative expressions - in revealing the content of the work. As a result of the study, it is substantiated that in Alexander Feinberg's poetry, the image of nature is expressed inextricably linked with the human psyche.

Аннотация. В данной статье анализируется стихотворение Александра Файнберга «Зима» с художественной и содержательной точек зрения. Исследование освещает зимние пейзажи, поэтическое мастерство поэта в описании природы и духовные переживания, передаваемые посредством образных выражений. В статье показано, что зимнее время отражает человеческую психику, спокойствие, созерцание и философию жизни. Также анализируется роль художественных средств, используемых в стихотворении — метафоры, сравнения и образных выражений — в раскрытии содержания произведения. В результате исследования подтверждается, что в поэзии Александра Файнберга образ природы неразрывно связан с человеческой психикой.

Kalit soʻzlar: Aleksandr Faynberg, qish fasli, tabiat tasviri, sheʼriyat, badiiy obraz, lirik kechinma.

Keywords: Alexander Feinberg, winter, depiction of nature, poetry, artistic image, lyrical experience.

Ключевые слова: Александр Файнберг, зима, изображение природы, поэзия, художественный образ, лирический опыт.

Kirish. Har bir ijodkor his-tuygʻularini hamda ichki kechinmalarini oʻz asarida xoh sheʼriy tarzda boʻlsin, xoh nasriy oʻquvchiga yetkazishni xohlaydi. Ayniqsa, tabiatning turli moʻjizalarini koʻrish orqali ijodkor shavq-u, zavqqa toʻladi hamda hissiyotlarini qogʻozga koʻchiradi. Sheʼriyatda tabiatga bagʻishlangan koʻplab nazm namunalari mavjud, ammo Aleksandr Faynbergning „Qishʼʼ sheʼri oʻz poetik uslubi bilan boshqa sheʼrlardan ajralib turadi. Tabiat obrazi Faynberg ijodida insonning ichki kechinmalari bilan bevosita bogʻliq. Xususan, „Qishʼʼ sheʼrida faslning sovuqligi orqali insonning dardlari, qaygʻu hamda alam iztiroblari ifodalangan. Ushbu sheʼrda nafaqat

ilmiy –amaliy anjuman

qishning betakror badiiy tasvirini, balki insonning ichki dunyosini, ichki kechinmalarini ko'rish mumkin.

Asosiy qism. Aleksandr Faynberg she'rning boshidayoq lirik qahramonning keskin lirik holatini namoyish etadi:

„Yo'q''-dedimi-demak, yo'q,

Sevgi tilaman zinhor.

So'qmoq. Qahraton sovuq,

Tizzamgacha kelar qor.

Ushbu misralar orqali shoir rad etilgan muhabbat hamda uning natijasida qolgan iztirobni tasvirlashga harakat qiladi. Takror aytilgan „yo'q'' javobi lirik qahramonning qat'iy va og'riqli qarorini ko'rsatadi. Qahraton sovuq va tizzagacha qor tasviri inson ichki holatidagi xafalik va sovuqlikni ko'rsatadi. Keyingi satrlarda esa ohang yanada keskinlashadi. O'rmon qishki holatini tasvirlash jarayonida hattoki oybolta sovuqdan bo'yniga qadar muzga botganligi ifodalanadi. Shoir tabiat portretini chizar ekan, uni insonning ichki kechinmalari bilan naqadar o'xshash jihatlari mavjudligini ko'rsata oladi. She'rda e'tibor qaratish muhim bo'lgan jumla:

Dante-Beatriche-ishq sho'r.

Misra orqali shoir mashhur shoir Dante Alighieri va uning ilhom manbai Beatrice Portinariga murojaat qiladi. Bu ishora muhabbat qissasining ba'zan quvonchli, ba'zan esa qayg'uli tugallanishi mumkinligi ta'kidlanadi. Lirik qahramon o'z sevgisini ana shunday buyuk muhabbat bilan qiyoslaydi.

Ko'nglim-kimsasiz kulba.

Menga farqi yo'q,sanam,

Kimga aylading jilva.

Ushbu satrlarda yolg'izlik, umidsizlik va beparvolik hisslari insonni chulg'ab oladi. „Kimsasiz kulba” metaforasi lirik qahramon qalbidagi bo'shliqni ifodalaydi. Lirik qahramon muhabbatdagi xiyonatdan so'ng iztirob chekib, hayot muammolariga betashvish bo'luib qolganini ta'kidlaydi. She'r yakunida shoir yana yolg'iz ekaniga ishora qiladi. Endi yuragiga hech kimni kiritma olmasligini, qalbi go'yoki muzga o'xshab qolganligini tasvirlaydi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynbergning „Qish” she'ri inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari, muhabbat iztiroblari va yolg'izlikni badiiy obrazlar bilan ifodalaydi. Shoir she'rdagi qish manzaralarining sovuq, izg'irin holatini tasvirlash bilan birgalikda lirik qahramonning qalbidagi iztirob, umidsizlik va yolg'izlik hissini qiyoslaydi. Tabiat tasviri inson qalbidagi ruhiy holat bilan uyg'unlashib, muallif tomonidan haqiqiy poetik asar darajasiga ko'tariladi. Qahramon sovuq, qor, muz kabi detallar nafaqat faslni tasvirlaydi, balki inson qalbidagi og'riqlik-iztirob, nafrat va ruhiy bo'shliqni ramziy tarzda ifodalaydi. She'rda turli badiiy vositalar- metafora, ramz va qiyoslar qo'llanganligi she'rning ta'sirchanligini oshirib, o'quvchini o'yga toldiradi. Ayniqsa, mashhur shoir Dante Aligieri hamda uning ilhom manbai Beatrice Portinariga qilingan ishora muhabbatning abadiy va murakkab jarayonligini yoritishga xizmat qiladi. Umuman olganda, „Qish” she'ri orqali Aleksandr Faynberg inson ruhiyatini ichki kechinmalarini, muhabbat, iztirob hamda yolg'izlik kabi mavzularni badiiy jihatdan yuksak darajada talqin qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Faynberg. Saodat sohili. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2007.
2. Aleksandr Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2015.

ilmiy –amaliy anjuman

3. Aleksandr Faynberg. She'rlar va dostonlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
4. Karimov B. O'zbek she'riyatida falsafiy motivlar. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Tursunov M. Lirik asarlar tahlili. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2017.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akadennashr, 2012.
7. Dante Alighieri. Ilohiy komediya. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2008.